

“Dekan kubogi” musobaqasi

“1 oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni” bayrami munosabati bilan “Bo’sh vaqtimiz - sport bilan birga” shiori ostida “Gidromelioratsiya” fakulteti 1-bosqich talaba-yoshlari o’rtasida ommaviy sportga yanada keng jalb qilish maqsadida, sportning mini-futbol turi bo’yicha “Dekan kubogi” musobaqasi ko’tarinki ruhda o’tkazildi. Fakultet dekani dos. A.Fatxullaev tomonidan musobaqa rasman ochib berildi.



Musobaqada jami 9ta guruh jamoalari o’rtasida bellashuv bo’lib o’tdi. Mazkur musobaqada 100 nafar talaba-yoshlar faol ishtirok etishdi. Musobaqa sermazmun va samarali o’tkazildi. Ushbu bellashuv yakunida g’olib jamoalarni GM fakulteti dekani A.Fatxullaev hamda dekan muovini S.Mansurovlar diplom, kubog hamda estalik sovg’alar bilan munosib taqdirlashdi.



“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası mudiri M.Norqobilov axboroti

Institut Matbuot markazi rahbari Rahimboy Jumaniyozov